

SANOAT KORXONALARI INVESTITSIYA SALOHİYATINI KUCHAYTIRISHDA FAOLIYATNI DIVERSIFIKATSIYALASH MEXANIZMLARI

Tillayeva Barno Ramizitdinovna

TDTU, “Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti”

kafedrası dotsenti

ORCID 0009-0007-3604-205X

E-mail: barnotillayeva78@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarining investitsiya salohiyatini oshirishda faoliyatni diversifikatsiyalash mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida diversifikatsiyaning iqtisodiy mazmuni hamda uning moliyaviy barqarorlik, risklarni taqsimlash va pul oqimlarini barqarorlashtirishga ta'siri o'rganildi. Yog'-moy sanoati korxonalari misolida mahsulot va xomashyo diversifikatsiyasining investitsion jozibadorlikka ta'siri baholandi. SWOT tahlil asosida ichki resurslar va tashqi omillar tizimlashtirildi. Qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarish va yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlarga kirish investitsiya samaradorligini oshirish imkonini berishi aniqlashtirildi. Olingan natijalar diversifikatsiya qarorlarini iqtisodiy hisob-kitob, bozor tahlili va risk baholash asosida qabul qilish investitsiya salohiyatini kuchaytirishda muhim ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: diversifikatsiya, investitsiya salohiyati, investitsion jozibadorlik, strategik boshqaruv, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish, sinergiya samarasi, kapital jalb qilish, korxona qiymati, portfel nazariyasi

Аннотация

В статье были проанализированы механизмы диверсификации деятельности в повышении инвестиционного потенциала промышленных предприятий. В ходе исследования была раскрыта экономическая сущность диверсификации и изучено её влияние на финансовую устойчивость, распределение рисков и стабилизацию денежных потоков. На примере предприятий масложировой промышленности была оценена роль продуктовой и сырьевой диверсификации в формировании инвестиционной привлекательности. На основе SWOT-анализа были систематизированы внутренние ресурсы и внешние факторы. Результаты показали, что принятие решений о диверсификации на основе экономических расчётов, анализа рынка и оценки рисков способствовало укреплению инвестиционного потенциала предприятий.

Ключевые слова: диверсификация, инвестиционный потенциал, инвестиционная привлекательность, стратегическое управление, управление рисками, финансовая стабильность, инновационное развитие, синергетический эффект, привлечение капитала, стоимость предприятия, теория портфеля

Abstract

The article analyzed the mechanisms of activity diversification in increasing the investment potential of industrial enterprises. The study examined the economic essence of diversification and its impact on financial stability, risk distribution, and

cash flow stabilization. Based on the example of oil and fat industry enterprises, the role of product and raw material diversification in enhancing investment attractiveness was assessed. Internal resources and external factors were systematized through SWOT analysis. The findings demonstrated that diversification decisions based on economic calculations, market analysis, and risk assessment contributed to strengthening the investment potential of enterprises.

Keywords: diversification, investment potential, investment attractiveness, strategic management, risk management, financial stability, innovative development, synergy effect, capital attraction, enterprise value, portfolio theory

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishi va investitsion jozibadorligini ta'minlash strategik boshqaruvning muhim vazifalaridan biridir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonaning faoliyat yo'nalishlarini kengaytirish, mahsulot portfelini boyitish hamda yangi bozor segmentlariga kirib borish orqali iqtisodiy xavflarni kamaytirish va qiymat yaratishni ko'zda tutadi. Ilmiy adabiyotlarda diversifikatsiya investitsiya salohiyatini oshiruvchi omil sifatida strategik menejment va moliyaviy nazariya doirasida keng o'rganilgan.

Korxonaning investitsiya salohiyati uning moliyaviy resurslari, innovatsion imkoniyatlari, boshqaruv samaradorligi hamda bozordagi o'rni bilan belgilanadi. Diversifikatsiya quyidagi yo'nalishlar orqali investitsiya salohiyatini oshiradi:

1. Risklarni minimallashtirish - turli sohalardagi faoliyat iqtisodiy sikllarning salbiy ta'sirini yumshatadi.
2. Pul oqimlarining barqarorligi - bir yo'nalishdagi pasayish boshqa segment hisobidan qoplanishi mumkin.
3. Innovatsion rivojlanish - yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etish investitsion loyihalar samaradorligini oshiradi.
4. Kapital jalb qilish imkoniyatlari - ko'p tarmoqli va barqaror kompaniyalar investorlar uchun jozibadorroq hisoblanadi.

Shunga ko'ra sanoat korxonalari faoliyatni diversifikatsiyalash mexanizmlari orqali investitsiya salohiyatini oshirish muammolari muxim ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Diversifikatsiya va investitsiya salohiyati o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Ilmiy manbalarda diversifikatsiya korxona faoliyatini kengaytirish, risklarni kamaytirish va qiymat yaratish vositasi sifatida talqin etiladi.

Klassik iqtisodiy yondashuvlarda kapitalning samarali taqsimlanishi va investitsiya qarorlarining shakllanishi muhim o'rin tutadi. Xususan, J. Tobinning ilmiy ishlanmalarida aktivlar tarkibini optimallashtirish va kapitalni turli yo'nalishlarga taqsimlash investitsiya barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida asoslab berilgan [3]. Portfel nazariyasi doirasida diversifikatsiya risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmi sifatida izohlanadi.

Strategik boshqaruv nazariyasida diversifikatsiya korxona resurslaridan samarali foydalanish vositasi sifatida qaraladi. Tarmoqlararo kengayish ichki imkoniyatlarga mos ravishda amalga oshirilganda qo'shimcha iqtisodiy samaradorlik yuzaga kelishi mumkin. Milliy tadqiqotlarda ham qishloq xo'jaligi va qayta ishlash tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va faoliyat yo'nalishlarini kengaytirish masalalari tahlil qilingan [5]; [6].

Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya to'g'risida"gi qonuni hamda "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan bo'lib, ushbu me'yoriy hujjatlar investitsiya jarayonlarini tartibga solish va investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan [1], [2]. Bu huquqiy asoslar korxonalarda diversifikatsiya orqali investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sanoat va farmatsevtika yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlar moy asosidagi mahsulotlardan keng foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Masalan, efir moylarining farmatsevtika sohasida qo'llanilishi sanoatlar-aro integratsiya imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligi ta'kidlangan [4].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda yog'-moy sanoati korxonalarining investitsiya salohiyatini oshirishda diversifikatsiyaning rolini baholash uchun tizimli va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Mahsulot diversifikatsiyasi darajasi assortiment tarkibi va qo'shimcha mahsulotlar ulushi asosida baholandi. SWOT tahlil yordamida ichki va tashqi omillar aniqlashtirildi. Investitsiya samaradorligini aniqlashda xarajat-natija yondashuvi hamda risklarni baholash usuli qo'llanildi. Shuningdek, an'anaviy va noan'anaviy mahsulotlar bo'yicha bozor talabi, narx dinamikasi va eksport imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida diversifikatsiyaning investitsiya salohiyatiga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yog'-moy sanoati korxonalarida investitsiya salohiyatini kuchaytirish masalasida diversifikatsiya, avvalo, mahsulot tarkibini kengaytirish, bozorlarni ko'paytirish va qo'shimcha qiymatli yo'nalishlarga o'tish orqali namoyon bo'ladi. Tarmoqda an'anaviy mahsulotlar (paxta chigiti, kungaboqar) bilan bir qatorda noan'anaviy mahsulotlarga (zaytun, kunjut, zig'ir, raps, soya va boshqalar) talab ortib borayotgani korxonalar uchun yangi ishlab chiqarish segmentlarini shakllantirishga asos yaratadi. Bu holat diversifikatsiyani faqat assortimentni ko'paytirish emas, balki investitsiya risklarini boshqarish, pul oqimlarini barqarorlashtirish va korxona qiymatini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi.

1) Yog'-moy sanoatida diversifikatsiyaning amaliy ko'rinishlari

Yog'-moy sanoatida diversifikatsiya quyidagi yo'nalishlarda kuzatiladi:

- Mahsulot diversifikatsiyasi: an'anaviy moylardan tashqari noan'anaviy moy turlarini ishlab chiqarish, rafinatsiya darajasini oshirish, qadoqlash va tayyor iste'mol segmentiga mos mahsulotlarni chiqarish.

- Xomashyo diversifikatsiyasi: paxta chigiti va kungaboqar bilan cheklanmasdan, soya, kunjut, raps, zig'ir, saflor kabi ekinlarga asoslangan qayta ishlash quvvatlarini moslashtirish.

- Qo'shimcha mahsulotlar diversifikatsiyasi: shrot, jmix, fosfatid konsentratlari, letsitin, texnik fraksiyalarni alohida tijorat mahsuloti sifatida chiqarish.

- Sanoatlar-aro diversifikatsiya: kosmetika, farmatsevtika, biologik faol qo'shimchalar, bioyoqilg'i (biodizel) va biopolimer yo'nalishlariga xomashyo va yarim tayyor mahsulot yetkazib berish zanjirini yo'lga qo'yish.

Ushbu yo'nalishlar korxona daromad manbalarini ko'paytiradi, bir mahsulot turiga bog'liqlikni kamaytiradi va investorlar baholaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan barqaror tushum (tushumning keskin tebranishsiz shakllanishi)ni ta'minlashga xizmat qiladi.

2) Diversifikatsiyaning investitsiya salohiyatiga ta'sir mexanizmlari

Diversifikatsiya investitsiya salohiyatiga bir nechta iqtisodiy mexanizmlar orqali ta'sir qiladi:

a) *Risklarni taqsimlash va barqarorlikni oshirish.* Korxona faqat bitta mahsulot yoki bitta bozorga tayanadigan bo'lsa, narxlar o'zgarishi, xomashyo ta'minoti, mavsumiylik va raqobat kuchayishi kabi omillar moliyaviy natijaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Diversifikatsiya esa tushum manbalarini ko'paytiradi va risklarni bir yo'nalishda jamlanib qolishining oldini oladi.

b) *Pul oqimlarini (cash flow) barqarorlashtirish.* An'anaviy segmentda pasayish bo'lgan davrda boshqa segment (masalan, noan'anaviy mahsulotlar yoki qo'shimcha mahsulotlar) hisobidan tushumning bir qismi qoplanadi. Bu bank va investorlar uchun muhim bo'lgan omil: kreditni qaytarish, foiz to'lovlari va operatsion xarajatlarni qoplash imkoniyati oshadi.

c) *Rentabellik va samaradorlikka ta'sir.* Chiqindilarni mahsulotga aylantirish (shrot, letsitin, fosfatid konsentratlari) resurslardan foydalanish koeffitsiyentini oshiradi. Bu ishlab chiqarish tannarxini boshqarish va qo'shimcha daromad olish imkonini beradi.

d) *Kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish.* Diversifikatsiyalangan korxona investor uchun ko'proq ishonchli bo'ladi, chunki u daromadni faqat bitta mahsulot yoki bitta bozorga bog'lab qo'ymaydi. Natijada investitsion jozibadorlik oshadi: kredit liniyalari, hamkorlik investitsiyalari, texnologik modernizatsiya uchun mablag' jalb qilish imkoniyati kengayadi.

e) *Korxona qiymatini oshirish (value creation).* Diversifikatsiya sinergiya orqali qiymat yaratishi mumkin: bitta xomashyodan bir nechta mahsulot chiqarish, logistika va infratuzilmani umumiy ishlatish, marketing va savdo kanallarini birlashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish va marjani oshirish.

1-jadval.

Yogʻ-moy sanoati korxonalari SWOT tahlili¹

Kuchli jihatlar	Kuchsiz jihatlar	Imkoniyatlar	Tahdidlar
Xomashyo bazasi mavjudligi (paxta chigiti, kungaboqar, soya va boshqalar) ishlab chiqarishni rejalashtirish imkonini beradi.	Asosiy uskunalarning eskirishi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi va tannarxni oshiradi.	Siklli iqtisodiyot tamoyillari asosida chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish.	Jahon bozorida yogʻ va don narxlarining oʻzgaruvchanligi (volatillik) tushumga taʼsir qiladi.
Yogʻ, shrot va qoʻshimcha mahsulotlarga tashqi bozorda talab mavjud.	Ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalar ulushi yetarli emas.	Xalqaro dasturlar (grantlar, texnologik hamkorlik) orqali investitsiya jalb qilish.	Xorijiy raqobatchilar yuqori texnologiyali quvvatlar bilan bozorga bosim qiladi.
Shrot, jmix, fosfatid konsentratlari kabi ikkilamchi mahsulotlardan daromad olish imkoniyati bor.	Innovatsion loyihalar va R&D uchun moliyalashtirish yetarli darajada shakllanmagan.	Eksport bozorlarini kengaytirish (Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Yevropa va boshqalar).	Ekologik talablar va standartlar kuchayishi qoʻshimcha xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin.
Ishlab chiqarish kooperatsiyasi (chorvachilik, kosmetika, farmatsevtika) bilan bogʻlanish imkoniyati mavjud.	Xalqaro sifat standartlariga moslashish boʻyicha tizimlar (sertifikatlash, izchillik) toʻliq yoʻlga qoʻyilmagan.	Qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish (bioyoqilgʻi, farm-kosmetika yoʻnalishi)ni rivojlantirish.	Iqlim oʻzgarishi, suv resurslari cheklanishi xomashyo yetishtirish hajmiga taʼsir qilishi mumkin.
Mehnat resurslari mavjudligi va ishlab chiqarish tajribasi.	Kadrlar malakasini oshirish tizimi amaliy ehtiyojlarga toʻliq mos emas.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (biogaz, biomassa, quyosh) orqali xarajatlarni kamaytirish.	Logistika xarajatlarining oʻsishi va transport zanjirlaridagi uzilishlar.
-	-	Ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda yangi mahsulotlarni joriy etish.	Bojxona, soliq va tarif tizimidagi oʻzgarishlar xarajatlar va narx siyosatiga taʼsir qiladi.

¹ Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya sanoat korxonasining investitsiya salohiyatini oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv yechimlaridan biridir. Diversifikatsiya korxona faoliyatini bir mahsulot, bir bozor yoki bir xomashyo turiga haddan tashqari bog'lab qo'yish holatini kamaytiradi. Natijada korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari (tushum, foyda, pul oqimi) barqarorroq shakllanadi, bu esa investor va kreditorlar tomonidan riskning nisbatan past baholanishiga olib keladi.

Diversifikatsiyaning investitsiya salohiyatiga ta'siri uchta asosiy yo'nalishda kuzatildi. Birinchidan, mahsulot va bozorlar bo'yicha diversifikatsiya tushum manbalarini ko'paytiradi, bu esa pul oqimlaridagi uzilishlarni kamaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, qo'shimcha mahsulotlar (shrot, jmix, fosfatid konsentratlari va boshqalar)ni tijoratlashtirish resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va tannarxni boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. Uchinchidan, yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlarga (farmatsevtika, kosmetika, bioyoqilg'i yo'nalishlari) kirish korxonaning rentabellik darajasini oshirish va bozor qiymatini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu omillar yig'indisi korxonaning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Biroq diversifikatsiya har doim avtomatik ravishda ijobiy natija bermaydi. Natijadorlik tanlangan yo'nalishning korxona resurslari va kompetensiyalariga mosligi, texnologik tayyorgarlik darajasi, moliyaviy yuklama (qarz va foiz to'lovlari), hamda bozor talabi va raqobat sharoitlari bilan belgilanadi. Shuning uchun diversifikatsiya qarorlari bozor tahlili, xarajatlar hisob-kitobi, risk baholash va investitsiya loyihalarini iqtisodiy asoslash bilan birgalikda qabul qilinishi zarur.

Diversifikatsiyani investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi sifatida samarali joriy etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. *Diversifikatsiya yo'nalishlarini tanlash mezonlarini belgilash.*

2. Korxona yangi mahsulot yoki bozorga kirishdan oldin tanlov mezonlarini aniq shakllantirishi kerak. Mezonga quyidagilar kiritiladi: bozor hajmi va o'sish sur'ati, talabning barqarorligi, raqobatchilar soni va ulushi, xomashyo ta'minoti barqarorligi, ishlab chiqarish quvvatlarini moslashtirish xarajatlari, sertifikatlash va standart talablarining murakkabligi.

3. *Moliyaviy imkoniyatlarni baholash va investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish.*

Diversifikatsiya loyihalarida mablag' yetishmovchiligi risk hisoblanadi. Shuning uchun korxona loyiha oldidan o'zining likvidlik ko'rsatkichlari, qarz yuklamasi, pul oqimi prognozi va investitsiya uchun ajratiladigan limitlarni hisoblab chiqishi lozim. Mablag' manbalari sifatida bank krediti bilan bir qatorda lizing, strategik investor, kooperatsiya asosidagi qo'shma loyiha, grant va imtiyozli moliyalashtirish instrumentlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

4. *Bosqichma-bosqich joriy etish va pilot loyihalardan foydalanish.*

Yangi yo'nalishlarni bir vaqtning o'zida katta hajmda boshlash moliyaviy va operatsion riskni oshiradi. Shu sababli mahsulot diversifikatsiyasini pilot partiyalar, sinov ishlab chiqarish va cheklangan bozorlarda test sotuvlari orqali bosqichma-

bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Pilot natijalari asosida texnologiya, narxlash, logistika va marketing yechimlari aniqlashtiriladi.

5. Texnologik modernizatsiya va sifat standartlarini kuchaytirish.

Noan'anaviy yog'lar va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar bozorida sifat talablari yuqori bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, laboratoriya nazorati, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, eksport bozorlariga chiqish uchun zarur sertifikatlashni rejalashtirish diversifikatsiya samaradorligini oshiradi.

6. Qo'shimcha mahsulotlar zanjirini rivojlantirish.

Yog'-moy sanoatida shrot, fosfatid, letsitin kabi yon mahsulotlar bo'yicha ichki va tashqi bozorni tahlil qilish, ularga alohida narx siyosati va sotuv kanallarini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu yo'nalish katta investitsiya talab qilmasdan ham qo'shimcha tushum manbaini yaratishi mumkin.

7. Risklarni boshqarish tizimini diversifikatsiya loyihalariga moslashtirish.

Loyiha risklari (xomashyo risklari, narx volatilligi, logistika, valyuta riski, standart va sertifikatlash talablari) alohida xarita shaklida baholanib, har bir risk bo'yicha kamaytirish choralari (kontraktlar, sug'urta, alternativ yetkazib beruvchilar, valyuta xedji) belgilanishi zarur.

8. Bozorlarni kengaytirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish.

Eksportni faqat bitta hududga yo'naltirish ham riskni oshiradi. Shuning uchun mintaqalar bo'yicha bozorni segmentlash, logistika yo'laklarini baholash, talab va bojxona talablarini solishtirish, mos bozorlar uchun mahsulot spetsifikatsiyasini tayyorlash tavsiya etiladi.

9. Boshqaruv va kadrlar salohiyatini mustahkamlash.

Diversifikatsiya yangi texnologiya, yangi mahsulot va yangi bozor bilan ishlashni talab qiladi. Shu sababli loyiha boshqaruvi, texnologik jarayonlar, sifat nazorati, eksport shartnomalari va marketing bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash choralari ko'rilishi lozim.

Diversifikatsiya korxonaning investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qiladi, biroq u faqat tizimli yondashuv mavjud bo'lganda natija beradi. Tizimli yondashuv deganda bozor tahlili, texnologik tayyorgarlik, moliyaviy hisob-kitoblar, risklarni boshqarish va bosqichma-bosqich joriy etish tartibining birgalikda ishlashi tushuniladi. Shu shartlar bajarilganda diversifikatsiya korxonaning moliyaviy barqarorligini kuchaytiradi, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va investorlarga taqdim etiladigan ko'rsatkichlarni yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4664142>

2. O'zbekiston Respublikasi 1998-yil 30-apreldagi № 609-I-sonli "Chel el investitsiyalari" to'g'risidagi Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-32450> .Tobin James. Money, capital and other stores of Value // American Economic Review, 1961.51(2), pp. 26-37;

3. Пономарева Е.И., Молохова Е.И., Холов А.К. Применение эфирных масел

в фармации // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 4.

4. Choriyev Q.A. Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari: i.f.d. diss. - T.: 2007.;

5. Jo‘rayev A.M. Qishloq xo‘jaligida raqobat muhitini shakllantirish: i.f.d. diss. - T.: 2006.;



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**